



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	



YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI

Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi
E-mail: toshboyevaferuza027@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Yoqubova Zilola To'ra qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada yashil investitsiyalarni rivojlantirishning barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotga qaratilgan loyihalar, jumladan ekologik toza energiya, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanish, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda ham muhim rol o'ynaydi. Maqolada yashil investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari va davlat siyosatining ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: yashil investitsiyalar, barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish, ekologik iqtisodiyot, ijtimoiy farovonlik, davlat siyosati.

Abstract: The article analyzes the importance of developing green investments in ensuring sustainable economic growth and social welfare. Projects aimed at green economy development, including clean energy, waste recycling, and efficient use of resources, not only increase economic efficiency but also play an important role in environmental protection and combating climate change. The article also examines mechanisms for promoting green investments and the importance of government policy in this area.

Key words: green investments, sustainable development, economic growth, ecological economy, social welfare, public policy.

Аннотация: В статье анализируется значение развития зелёных инвестиций в обеспечении устойчивого экономического роста и общественного благосостояния. Проекты, направленные на развитие зелёной экономики, включая экологически чистую энергетику, переработку отходов и эффективное использование ресурсов, не только повышают экономическую эффективность, но и играют важную роль в защите окружающей среды и борьбе с изменением климата. В статье также рассматриваются механизмы стимулирования зелёных инвестиций и значение государственной политики в данной сфере.

Ключевые слова: зелёные инвестиции, устойчивое развитие, экономический рост, экологическая экономика, общественное благосостояние, государственная политика.

KIRISH

Hozirgi davrda global miqyosda ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi hamda tabiiy resurslarning kamayib borishi iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot va yashil investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil



investitsiyalar atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy o'sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ko'plab davlatlar iqtisodiy siyosatida yashil investitsiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil investitsiyalar zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omili sifatida keng o'rganilgan. Ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati haqida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xorijiy olimlar orasida Nicholas Stern iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga salbiy ta'sirini tahlil qilgan. U yashil investitsiyalarni kengaytirish orqali ekologik muammolarni kamaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi [1]. Amerikalik iqtisodchi Edward B. Barbier yashil investitsiyalarni iqtisodiy inqirozdan chiqish, yangi ish o'rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi deb hisoblaydi [2]. Michael Porter va Claas van der Linde esa ekologik innovatsiyalar va yashil texnologiyalar korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar [3].

Mahalliy olimlar ham barqaror rivojlanish va yashil investitsiyalar masalalarini o'rganib kelmoqdalar. P. Z. Hashimov iqtisodiy o'sish jarayonida investitsiyalarning muhimligini ta'kidlab, ularni samarali boshqarish barqaror rivojlanishga xizmat qilishini qayd etadi [4]. Sh. Sh. Shodmonov va U. V. G'afurov tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muvozanatni saqlash barqaror rivojlanishning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydilar [5]. O'zbek olimlaridan yana biri Vahobov A. yashil investitsiyalarni barqaror iqtisodiy o'sishning ajralmas qismi sifatida ko'rib, ularni qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni oshirish vositasi deb baholaydi [6].

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil investitsiyalarning barqaror rivojlanishga ta'siri statistik, iqtisodiy va komparativ tahlil usullari orqali o'rganildi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayandi:

1. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Investitsiyalarni rag'batlantirish agentligi hamda rasmiy hukumat saytlari orqali 2022–2025 yillar bo'yicha investitsiyalar, YAIM, sektorlar bo'yicha sarmoya hajmi va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi. Ushbu ma'lumotlar asosida investitsiyalarning hajmi, tarkibi va iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganildi.

2. Kvantitativ tahlil usullari: Investitsiyalarning YAIMga nisbati, asosiy kapitalga qo'yilgan sarmoyalar va sektorlar bo'yicha o'sish dinamikasi matematik hamda statistik metodlar yordamida tahlil qilindi. Diagramma va jadval shaklida ko'rsatkichlar vizual tarzda ifodalandi, bu orqali investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlashtirildi.

3. Sifat tahlili: Investitsiyalarning iqtisodiy tizimga ijobiy ta'siri, infratuzilma rivoji, yangi ish o'rinlari yaratish va texnologik yangilanishlarni rag'batlantirish kabi sifat jihatlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, institutsional muhit, investorlarni himoya qilish choralari va iqtisodiy liberallashtirishning investitsiya faoliyatiga ta'siri o'rganildi.

4. Komparativ tahlil: O'zbekistonning investitsion faolligi rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirilib, xorijiy kapitalni jalb qilish bo'yicha samaradorlik va uning iqtisodiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil investitsiyalar deganda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar tushuniladi. Bunday investitsiyalar ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga iqtisodiy rivojlanishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Yashil investitsiyalar quyidagi sohalarida amalga oshiriladi:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, gidroenergetika);
- energiya tejamkor texnologiyalar;
- chiqindilarni qayta ishlash tizimlari;
- ekologik transport va infratuzilma;
- suv va tabiiy resurslarni tejashga qaratilgan loyihalar.

Mazkur investitsiyalar nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston boy tabiiy resurslarga ega. Mamlakatda quyosh nurlanishi va shamol tezligi yuqori bo'lib, kam aholi yashaydigan hududlarda quyosh energiyasi stansiyalari uchun mos maydonlar mavjud. Mamlakatning texnik quyosh va shamol energiyasi salohiyati umumiy energiya ta'minotidan bir necha barobar yuqori ekani baholanadi. Katta hajmdagi qishloq xo'jaligi va chorvachilik esa bioenergiya rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu salohiyat mamlakatni mintaqada qayta tiklanuvchi energiya eksportchisi hamda yashil vodorod ishlab chiqarish markaziga aylantirish imkonini beradi.



Biroq O'zbekiston uglerod sig'imi yuqori bo'lgan qazilma yoqilg'ilarga sezilarli darajada bog'liq bo'lib qolmoqda va jiddiy ekologik muammolarga duch kelmoqda. Mamlakat 1990-yildan buyon YAIM o'sishini karbon chiqindilaridan ajratib, iqtisodiyotning energiya va uglerod intensivligini 70 foizdan ortiq kamaytirishga muvaffaq bo'ldi. Biroq tabiiy gaz hali ham energiya ta'minotining 86 foizini tashkil etadi va energiya intensivligi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yuqori darajada saqlanib qolmoqda, bu esa mamlakatni dunyodagi karbon intensiv davlatlardan biriga aylantiradi.

Bundan tashqari, keng ko'lamli sug'orish tizimlari va qishloq xo'jaligida suv yo'qotishlarining yuqoriligi O'zbekistonning suv resurslari ta'minotiga salbiy ta'sir kўrsatmoqda. Iqlim o'zgarishi esa suv taqchilligi muammosini yanada kuchaytirishi mumkin. Orol dengizining qurishi oqibatida O'zbekiston sezilarli darajadagi xavo ifloslanishidan aziyat chekmoqda.

2018-yildan boshlab yashil o'sish O'zbekiston uchun siyosiy ustuvor yo'nalishga aylandi. Mamlakat 2018-yilda Parij kelishuvi doirasida birinchi Milliy belgilangan hissani (NDC) қабул қилди, mazkur hujjat 2021-yilda yangilanib, yanada ambitssiyali issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish maqsadlari bilan to'ldirildi. 2019-yilda O'zbekiston "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2019–2030"ni ham қабул қилди [7], mazkur hujjat yashil rivojlanishning asosiy strategik dasturi hisoblanadi. Ushbu strategiya uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish hamda Parij kelishuvi bo'yicha majburiyatlarni bajarishga qaratilgan. 2024-yilda strategik maqsadlar qayta ko'rib chiqilib, 2030-yilga qadar elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 2022-yildagi 14 foizdan 40 foizga yetkazish rejalashtirildi.


Xalqaro moliyaviy institutlar ko'magida 2022-yildan boshlab quyosh va shamol energetikasi bo'yicha tenderlar davlat-xususiy sheriklik asosida xorijiy investorlar иштирокида amalga oshirilmoqda. Yangilanuvchi energiya bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2014–2018-yillardagi 1,4 milliard AQSh dollaridan 2019–2023-yillarda 11,7 milliard AQSh dollariga yetdi va jami investitsiyalarning 50,1 foizini tashkil қилди. Bu ko'rsatkich qazilma yoqilg'i sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalardan deyarli uch barobar yuqoridir.

Shu bilan birga, O'zbekiston neft va gaz qazib olishga yangi investitsiyalarni jalb qilishni davom ettirmoqda. Energiya talab qiluvchi sanoat tarmoqlari ham sezilarli investitsiyalar olishda davom etmoqda. Biroq kanalizatsiya, oqava suvlarni tozalash va suv boshqaruvi kabi ekologik texnologiyalar sohasiga yo'naltirilayotgan xususiy investitsiyalar hajmi nisbatan pastligicha qolmoqda [8].

2030-yilga kelib O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 20 gigavattgacha oshirishni rejalashtirgan bo'lib, bunda qayta tiklanuvchi manbalar umumiy elektr ishlab chiqarishning 40 foizini tashkil etishi ko'zda tutilgan.

2023–2024-yillarda O'zbekiston yashil energiya investitsiyalarini uch barobarga oshirdi. Xususan, 2023-yilda 1,3 milliard AQSh dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb қилинган bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkichning 4,6 milliard AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston 2023-yilda 4,3 milliard kilovatt-soat hajmida yashil energiya ishlab chiqardi, bu esa 1,3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash va CO₂ chiqindilarini 1,8 million tonnaga kamaytirish imkonini berdi. Ushbu natijalar O'zbekistonning Parij kelishuvi bo'yicha majburiyatlarini amalga oshirishga xizmat qilmoqda [9].



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da. (2024-yil)



1-rasmda O'zbekistonda jami 493,7 trillion so'mlik investitsiyalarning turli sohalar bo'yicha taqsimoti aks ettirilgan. Eng katta ulush ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, 144,6 trillion so'mni yoki jami investitsiyalarning 29,3 foizini tashkil etadi. Bu holat sanoatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Ikkinchi yirik yo'nalish "Boshqa faoliyat turlari" bo'lib, unga 87,8 trillion so'm (17,7 foiz) ajratilgan. Shuningdek, elektr va gaz bilan ta'minlash sohasiga 68,5 trillion so'm miqdorida, ya'ni jami investitsiyalarning 13,9 foizi yo'naltirilgan. Mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiyotning asosiy infratuzilma va xizmat ko'rsatish yo'nalishlari ustuvor ahamiyat kasb etayotganini bildiradi.



2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, % da

2-rasm umumiy holatda ijobiy o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. 2022-yilda kichik pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda ko'rsatkich tez sur'atlarda o'sib, 2024-yilga kelib eng yuqori nuqtaga yetgan. Ushbu o'sish barqaror xarakterga ega bo'lib, so'nggi ikki yilda yanada jadallashgan, biroq 2024-yilda o'sish sur'ati avvalgi yilga nisbatan biroz sekinlashgan.

Barqaror iqtisodiy o'sish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning uyg'un rivojlanishini talab etadi. Yashil investitsiyalar ushbu uch omilni birlashtiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Birinchidan, ular ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirib, resurslardan tejamkor foydalanishga yordam beradi. Ikkinchidan, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali atrof-muhitga zararli chiqindilarni kamaytiradi. Uchinchidan, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini shakllantiradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalarni keng joriy etgan davlatlarda iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlik darajasi yuqori bo'ladi. Shu sababli ko'plab rivojlangan mamlakatlar yashil energetika, ekologik transport va resurs tejovchi texnologiyalarni rivojlantirishga katta miqdorda investitsiyalar yo'naltirmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari jadallashib bormoqda. Mamlakatda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik muammolarni kamaytirishga qaratilgan investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yashil investitsiyalarni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi:

- yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish;
- ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash;
- investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yashil investitsiyalar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ular iqtisodiy rivojlanish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni birgalikda ta'minlash imkonini beradi. Shu bois zamonaviy iqtisodiy siyosatda yashil investitsiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Kelajakda yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik investitsiyalarni kengaytirish orqali barqaror rivojlanishning mustahkam asoslarini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Stern, N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
2. Barbier, E.B. A Global Green New Deal. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
3. Porter, M. E., van der Linde, C. Green and Competitive: Ending the Stalemate // Harvard Business Review. – 1995.
4. Hashimov, P.Z. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. Shodmonov, Sh.Sh., G'afurov, U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010.
6. Vahobov, A. Yashil iqtisodiyot. – Toshkent, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
8. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan / Promoting Green Investment in Uzbekistan. https://www.oecd.org/en/publications/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_20865f29-en/full-report/promoting-green-investment-in-uzbekistan_021bd5e8.html
9. Uzdaily. International Companies and Banks Show Interest in Green Energy Export Project to Europe. URL: <https://www.uzdaily.uz/en/international-companies-and-banks-show-interest-in-green-energy-export-project-to-europe/>
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Infografik ma'lumotlar. URL: <https://stat.uz/img/infografikalar/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>